

GINEKOLOGIYADA O'TKIR QORIN SINDROMI

Abdullayeva Maqsuda Ne'matilla qizi

Do'stlik Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

2-maxsus fanlar kafedrası

o'qituvchisi.

Bolqiyeva Fotima Ibragimovna

Do'stlik Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

1-maxsus fanlar kafedrası

o'qituvchisi.

Mamirova Yodgora Qo'chqorboy qizi

Do'stlik Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

2-maxsus fanlar kafedrası

o'qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilmiy maqolada ginekologik amaliyotda uchraydigan o'tkir qorin sindromining etiologik omillari, klinik belgilarining namoyon bo'lish mexanizmlari, tashxislash bosqichlari hamda davolash yondashuvlari keng tahlil qilingan. O'tkir qorin sindromi ayollar reproduktiv salomatligiga bevosita xavf tug'diruvchi omil sifatida qaraladi. Ushbu sindromning o'z vaqtida aniqlanishi va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishi nafaqat ayol hayotini, balki uning reproduktiv funksiyalarini ham saqlab qolishda muhim o'rin tutadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, klinik amaliyotda aniq tashxis qo'yish uchun kompleks yondashuv — anamnez yig'ish, fizik tekshiruv, laboratoriya tahlillari va zamonaviy instrumental diagnostika usullari qo'llanilishi talab etiladi.

Kalit so'zlar: O'tkir qorin sindromi, ginekologik kasalliklar, differensial diagnostika, ultratovush tekshiruvi, laparoskopiya, jarrohlik amaliyoti, shoshilinch yordam.

ОСТРЫЙ АБДОМИНАЛЬНЫЙ СИНДРОМ В ГИНЕКОЛОГИИ

Аннотация. В данной научной статье представлен комплексный анализ этиологических факторов, механизмов проявления клинических симптомов, этапов диагностики и подходов к лечению острого абдоминального синдрома, встречающегося в гинекологической практике. Острый абдоминальный синдром считается непосредственной угрозой репродуктивному здоровью женщин. Своевременное выявление данного синдрома и оказание экстренной медицинской помощи играют важную роль в сохранении не только жизни женщины, но и её репродуктивной функции. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости комплексного подхода для постановки точного диагноза в клинической практике: сбор анамнеза, физикальное обследование, лабораторные исследования и использование современных инструментальных методов диагностики.

Ключевые слова: Острый абдоминальный синдром, гинекологические заболевания, дифференциальная диагностика, ультразвуковое исследование, лапароскопия, хирургическое вмешательство, экстренная помощь.

ACUTE ABDOMINAL SYNDROME IN GYNECOLOGY

Annotation. This scientific article provides a comprehensive analysis of the etiological factors, mechanisms of manifestation of clinical symptoms, diagnostic stages and treatment approaches of acute abdominal syndrome encountered in gynecological practice. Acute abdominal syndrome is considered a direct threat to women's reproductive health. Timely detection of this syndrome and provision of emergency medical care play an important role in preserving not only a woman's life, but also her reproductive functions. According to the results of the study, an integrated approach is required to make an accurate diagnosis in clinical practice - anamnesis collection, physical examination, laboratory tests and the use of modern instrumental diagnostic methods.

Keywords: Acute abdominal syndrome, gynecological diseases, differential diagnosis, ultrasound examination, laparoscopy, surgical intervention, emergency care.

Kirish. Ayollarda uchraydigan o'tkir qorin sindromi tibbiyotning eng murakkab va xavfli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu sindrom o'z mohiyatiga ko'ra, qorin sohasida keskin va kuchli og'riq bilan kechadigan, turli etiologik omillar natijasida yuzaga keladigan va tezkor tashxis qo'yishni talab qiladigan klinik holatdir. Ginekologik amaliyotda ushbu sindrom odatda tuxumdon apopleksiyasi, bachadon naylarida homiladorlikning buzilishi (ektopik homiladorlik), tuxumdon kistalarining burilishi, bachadon yirtilishi kabi patologiyalar oqibatida paydo bo'ladi.

So'nggi yillarda olib borilgan klinik kuzatuvlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'tkir qorin sindromi bilan shoshilinch yordamga murojaat qilgan ayollarda tashxis qo'yish kechikishi ularning hayoti va salomatligiga jiddiy xavf tug'diradi. Shu sababli ushbu mavzuni chuqur o'rganish, zamonaviy diagnostika va davolash protokollarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili. Mazkur ilmiy izlanishda ginekologik amaliyotda keng tarqalgan o'tkir qorin sindromini chuqur o'rganish, uning etiologik omillari, klinik belgilari, tashxislash va davolash jarayonlaridagi zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilish maqsad qilib olindi. Shu sababli tadqiqotda bir necha metodologik yondashuvlar uyg'unlashtirildi.

Ya'ni, qiyosiy-tahliliy yondashuv qo'llanilib, turli mualliflar tomonidan berilgan klinik tavsiflar, tashxis algoritmlari hamda davolash usullari o'zaro solishtirildi. Shu orqali diagnostika va davolashning samaradorligini oshirishga qaratilgan umumiy xulosalar chiqarildi.

So'ngra, klinik kuzatuvlar tahlilidan foydalanildi. Adabiyotlarda keltirilgan real klinik holatlar, diagnostika jarayonida qo'llanilgan laborator va instrumental tekshiruvlar hamda shoshilinch davolash protokollari nazariy jihatdan o'rganildi.

Nihoyat, sintetik yondashuv asosida mavjud ma'lumotlar bir butun tizimga keltirildi, ularning o'zaro bog'liqligi ochib berildi va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

O'tkir qorin sindromi ginekologiyada uchraydigan eng dolzarb shoshilinch holatlardan biri bo'lib, ilmiy manbalarda mazkur patologiya ko'plab jihatlari bilan yoritib berilgan.

Ibragimov A.Sh. va Yusupova N.K tomonidan tayyorlangan o'quv qo'llanmada ginekologik kasalliklarning umumiy klinik ko'rinishlari, tashxislash usullari va davolash choralariga alohida e'tibor qaratilgan. Mualliflar o'tkir qorin sindromini keltirib chiqaruvchi asosiy sabablardan tuxumdon apopleksiyasi, ektopik homiladorlik va tuxumdon kistasining burilishini ta'kidlab, ushbu holatlarda to'g'ri tashxis qo'yish va shoshilinch yordam ko'rsatishning hayotiy ahamiyatini asoslab beradilar [1].

Radzinskiy V.E "Milliy qo'llanma" asarida esa ginekologiyada o'tkir qorin sindromi alohida bob sifatida yoritilgan. Unda kasallikning klinik belgilari xilma-xilligiga, differensial diagnostikaning murakkabligiga hamda zamonaviy laparoskopik usullarning tashxis va davolashdagi o'rniga alohida urg'u berilgan. Muallifning ta'kidlashicha, o'z vaqtida bajarilgan laparoskopik aralashuvlar nafaqat tashxisni aniqlashtirish, balki bemorni tezkor davolash imkonini ham beradi.

Tuxvatullina G.R. o'z monografiyasida o'tkir qorin sindromining klinik kechishi, tashxislash bosqichlari va davolashning zamonaviy usullarini chuqur o'rganadi. Asarda klinik kuzatuvlar asosida qorin bo'shlig'ida qon ketishini erta aniqlash, ultratovush tekshiruvining afzalliklari, laborator ko'rsatkichlarni baholash usullari keng tahlil qilingan. Muallifning xulosalariga ko'ra, shoshilinch tibbiy yordamning samaradorligi tashxis qo'yishning tezligi va aniqligiga bevosita bog'liqdir.

Umuman olganda, adabiyotlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ginekologiyada o'tkir qorin sindromi diagnostikasi va davolashida:

- klinik belgilarni chuqur tahlil qilish;
- laborator va instrumental tekshiruvlarni kompleks qo'llash;
- laparoskopiyaning diagnostik va terapevtik imkoniyatlaridan keng foydalanish;
- shoshilinch jarrohlik aralashuvini o'z vaqtida amalga oshirish asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida qaraladi.

Shuningdek, barcha manbalarda alohida ta'kidlanishicha, bunday patologiyalarda kechikkan tashxis yoki noto'g'ri davolash bemor hayoti uchun jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Shu sababli, klinik amaliyotda kompleks yondashuv va tezkor qaror qabul qilish zaruriy shart sifatida baholanadi [3].

Natija. Kuzatuv va adabiyotlar tahliliga ko'ra, ginekologik amaliyotda o'tkir qorin sindromi quyidagi asosiy patologiyalar bilan bog'liq:

- Tuxumdon apopleksiyasi – tuxumdon to'qimalarining yorilishi oqibatida ichki qon ketish kuzatiladi. Ushbu holat ko'pincha ovulyatsiya davrida ro'y beradi. Klinik belgilari: qorin pastida to'satdan og'riq, hushdan ketish, bosh aylanishi, qon bosimining pasayishi.

- Ektopik homiladorlik – bachadon naylarida rivojlanadigan homiladorlikning buzilishi oqibatida qorin bo'shlig'iga qon ketadi. Bu jarayon ayol hayoti uchun eng xavfli holatlardan biridir.

- Tuxumdon kistasi burilishi – tuxumdon ustida hosil bo'lgan kistaning o'z o'qi atrofida burilishi kuchli og'riqlar, ko'ngil aynishi, qusish, hushdan ketish bilan kechadi. Shoshilinch jarrohlik aralashuvi talab qilinadi.

- Bachadon yirtilishi – ko'proq chandiqli bachadonli yoki ko'p marta tug'ruq qilgan ayollarda uchraydi. Qon ketish juda kuchli bo'ladi, bu ayol hayoti uchun jiddiy xavf tug'diradi.

Klinik tekshiruv – bemor shikoyatlari, anamnez yig'ish va fizik tekshiruv o'tkazish.

Laboratoriya tekshiruvlari – gemoglobin darajasi, qon guruhini aniqlash, hCG testi.

Instrumental diagnostika:

Ultratovush tekshiruvi (USG) – qon ketishini, kista yoki ektopik homiladorlikni aniqlashda muhim.

Laparoskopiya – diagnostika va davolashni bir vaqtda olib borish imkonini beruvchi usul [6].

Muhokama. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'tkir qorin sindromi bilan murojaat qilgan bemorlarda dastlabki 1–2 soat ichida to'g'ri tashxis qo'yish o'lim va og'ir asoratlarning xavfini 60–70% ga kamaytiradi. Shoshilinch jarrohlik amaliyoti, gemodinamik ko'rsatkichlarni barqarorlashtirish va reanimatsion yordam ushbu sindromni samarali bartaraf etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shuni ham aytish joizki, qorin og'rig'i turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin va ularning tasnifi odatda og'riqning qanchalik tez paydo bo'lishi hamda qancha vaqt davom etishiga bog'liq. Masalan, o'tkir og'riq bir necha soat ichida yoki qisqa muddatdan keyin paydo bo'ladi va ko'pincha boshqa klinik belgilar bilan birgalikda kuzatiladi. Surunkali og'riq esa uzoq davom etishi bilan xarakterlanadi, u haftalardan oylar davomida davom etishi yoki ma'lum vaqt oralig'ida paydo bo'lib, keyin yo'qolishi mumkin. Shuningdek, progressiv og'riq ham mavjud bo'lib, u vaqt o'tishi bilan asta-sekin kuchayadi va odatda boshqa simptomlar bilan birga namoyon bo'ladi.

Qorin og'rig'ining kelib chiqish sabablari juda xilma-xildir. Og'riq yengil noqulaylik yoki kuchli spazmlar shaklida sezilishi mumkin. Ko'p hollarda bu holat oddiy hazm jarayonidagi buzilishlar, ich qotishi, oshqozon-ichak infeksiyalari yoki ayollarda hayz davriga xos bo'lgan spazmlar bilan bog'liq bo'ladi. Biroq, bunday og'riqlar ayrim hollarda jiddiyroq kasalliklarning belgisi ham bo'lishi mumkin. Masalan, irritabiy ichak sindromi (IBS), Kron kasalligi, yarali kolit, ovqatdan zaharlanish, oziq-ovqat allergiyasi, qorin dam bo'lishi yoki siydik yo'llari infeksiyasi kabi omillar ham qorin og'rig'ini chaqirishi ehtimoldan xoli emas. Shuningdek, qorin bo'shlig'i mushaklarining zo'riqishi yoki jarohatlanishi ham og'riq manbai bo'lishi mumkin [7].

Xulosa. Ginekologiyada uchraydigan o'tkir qorin sindromi o'z vaqtida tashxis qo'yish va tezkor yordamni talab qiladigan dolzarb shoshilinch holatlardan biridir. Uning eng ko'p uchraydigan sabablari tuxumdon apopleksiyasi, ektopik homiladorlik, tuxumdon kistasining burilishi va bachadon yirtilishi hisoblanadi. Klinik amaliyotda kompleks diagnostika usullaridan foydalanish tashxis qo'yish aniqligini oshiradi va ayol hayotini saqlab qolishda muhim o'rin tutadi. Shuning uchun, ushbu sindromga

shubha qilingan hollarda shifokorlar tezkor qaror qabul qilishi va shoshilinch davolash choralari ko'rish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ибрагимов А.Ш., Юсупова Н.К. Акушерство и гинекология: Учебное пособие. – Ташкент: ТМА, 2021. – 356 с.
2. Радзинский В.Е. Акушерство и гинекология: Национальное руководство. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2020. – 864 с.
3. Тухватуллина Г.Р. Острый живот в гинекологии: современные подходы к диагностике и лечению. – Казань: КГМУ, 2019. – 214 с.
4. Кадыров Р.Ш. Ургентные состояния в акушерстве и гинекологии. – Ташкент: Фан, 2018. – 276 с.
5. Умарова, Н. А. Рахимова. – Тошкент: ТТА нашриёти, 2021. – 245 б.
6. Johnson, G. Acute abdomen in gynecology: modern diagnostic approaches / G. Johnson, H. Brown // Journal of Obstetrics and Gynecology. – 2020. – Vol. 45, No. 3. – P. 115–122.
7. Расулова, Г. Бачадон ташқарисидаги ҳомиладорликнинг клиник кўринишлари ва ташхислаш / Г. Расулова // Ўзбекистон тиббиёт журнали. – 2023. – Т. 6, №2. – Б. 78–84.